

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
IYUN/6-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING LIKVIDLILIGINI TA'MINLASH MASALALARI.....	10
Bauyetdinov M.J.	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISH STRATEGIYASI.....	18
Usmanova Zumrad Islamovna, Xasanova Yulduz Kayumovna	
TOKLI O'TKAZGICHLARDA MAGNIT MAYDON INDUKSIYASINING NAZARIY TAHLILI	23
O'ngboyev Anvar, Umarov Uyg'un, Dusiyorov Jaxongir, Jonimqulov Mirtemur	
QISHLOQ XO'JALIGIDA SUV RESURSLARINI BOSHQARISHNING INNOVATSION MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	30
Akbarova Shaxnoza Yakub qizi	
IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA ASALARICHILIK TARMOG'I SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	33
Farmanov Jonibek Ziyadullayevich	
BILVOSITA SOLIQLARNI MA'MURIY BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	38
Mansurova Arofatxon Shavkat qizi	
BANKLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI XALQARO USULLAR VA MEZONLAR ASOSIDA BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	43
G'aybulloyev Suxrob Odil o'g'li	
IDEMPOTENT O'LCHOVLAR SIMPLEKSIDA ANIQLANGAN CHIZIQLI OPERATORLAR DINAMIKASINING EKOLOGIK MODELLASHTIRISHDAGI TATBIQI	50
Karimov Muzaffar Musaxonovich, Karimova Shalola Musayevna	
BANKLARARO LIKVIDLILIKNI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKT VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	56
Baxromov Nodirjon Muxammadamin o'g'li	
BANKLARDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA XIZMAT KO'RSATISH SIFATINI OSHIRISH	60
Asemova Rano Jabbarbergenovna	
ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ СЦЕНАРНОГО АНАЛИЗА РАЗВИТИЯ АПК.....	66
Ли Марина Рудольфовна	
POLIMER VA UGLEROD NANOTOLALI MODIFIKATORLAR ASOSIDA BITUM KOMPOZITSIYALARINING REOLOGIK, MIKROTUZILMAVIY VA ADGEZION XOSSALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING QIYOSIY TAHLILI	70
Hasanov Bahrom Bo'ronovich	
XORIJIY TADBIRKORLIK RIVOJLANISHIGA XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYANING TA'SIRI.....	76
Mamatraimov Islom Mamanazarovich	
SULFIDLI POLIMETALL RUDALARNI SELEKTIV FLOTATSIYALASHDA YANGI AVLOD REAGENTLARINI QO'LLASHNING TEXNOLOGIK YECHIMLARI TAHLILI.....	79
Xushvaqтова Zamira Hikmatulloyevna, Saidaxmedov Aktam Abdisamiyevich	
LOGICLABUZ: A BROWSER-NATIVE CO-SIMULATION PLATFORM FOR THE VIRTUALIZATION OF MULTI-MCU ROBOTIC SYSTEMS	84
Ergashev Adizbek Kamol ugli	
DUBAY IQTISODIYOTINING DIVERSIFIKATSIYALASHUV BOSQICHLARI VA UNDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	94
Dilmira Abdumalikovna Shamusarova	
MINTAQADA TIBBIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING XALQARO MODELLARI.....	99
Yusupova Mehrigon O'ktamovna	
EKONOMETRIK MODELLARNI TANLASH VA ULARNING SIFATINI BAHOLASHDA INTEGRAL MEZONNI QO'LLASH	104
Turayev Baxtiyor Ergashevich	



PHP VA SUN'YI INTELLEKT SINERGIYASI: LARAVEL ASOSIDA INTELLEKTUAL VEB-TIZIMLARNI LOYIHALASH ARXITEKTURASI.....	110
Jo'rayev To'xtasin, Abdusattarov Odiljon, Boymatov Mexrojiddin, Temirova Orifa, Yuldashboyev Shermuxammad	
CORPORATE GOVERNANCE QUALITY, FOREIGN DIRECT INVESTMENT, AND ECONOMIC GROWTH: A PANEL ECONOMETRIC ANALYSIS OF CENTRAL ASIAN COUNTRIES (2003–2024).....	119
Yusufjon Pulatov	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH VA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	129
Sheraliyev Olimjon O'ktam o'g'li	
МЕХАНИЗМ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ КРУПНЫХ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ.....	135
T.T. Жураев	
XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA HUDUDIY BANDLIKNI KENGAYTIRISH MEKANIZMLARI	140
Azadova Gulnoza Sardorbekovna	
YASHIL IQTISODIYOT, RESURS SAMARADORLIGI, TABIIY KAPITAL, AYLANMA IQTISODIYOT, EKOLOGIK SAMARADORLIK VA INKLYUZIV O'SISH TUSHUNCHALARINING ILMIY EVOLYUTSIYASI TAHLILI	146
Karimov Islombek Bekpo'lat o'g'li	
РОЛЬ АЛГОРИТМОВ В ПРОЦЕССЕ ПРИНЯТИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ РЕШЕНИЙ НА СОВРЕМЕННЫХ РЫНКАХ КАПИТАЛА	153
Алиева Сусанна Сейрановна	
РОЛЬ АЛГОРИТМОВ В ПРОЦЕССЕ ПРИНЯТИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ РЕШЕНИЙ НА СОВРЕМЕННЫХ РЫНКАХ КАПИТАЛА	153
Алиева Сусанна Сейрановна	
BUXORO VILOYATIDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATI VA ASOSIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI....	160
Ibragimov Aziz Turayevich	
ALOQA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA SOLIQLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	168
Shirinov Uchqun, Bahodirova Madinabonu	
TA'LIM XIZMATLARI EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING SWOT VA OMILLI TAHLILI.....	176
Alimova Shamsiya Abidovna	



UDK: 339.564:37

TA'LIM XIZMATLARI EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING SWOT VA OMILLI TAHLILI

Alimova Shamsiya Abidovna

Osiyo xalqaro universiteti,

“Iqtisodiyot” kafedrası

ORCID: 0009-0004-5950-0277

E-mail: alimova635@mail.ru

Annotatsiya. O'zbekistonda ta'lim xizmatlari eksportini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar SWOT-tahlil va omilli tahlil (factor analysis) usullari asosida kompleks baholangan. Tadqiqotda ekspert baholash usuli, og'irlikli ballar usuli (IFAS/EFAS) hamda asosiy komponentlar tahlili qo'llanilgan. Natijalar ta'lim xizmatlari eksportiga ta'sir ko'rsatuvchi o'nta asosiy omil mavjudligini hamda ularning institutsional-sifat, bozor-resurs va tartibga soluvchi omillar kabi uchta yirik komponentga birlashishini ko'rsatdi. SWOT strategik holat diagrammasi mamlakat ta'lim xizmatlari eksportini rivojlantirishda agressiv (SO) strategiyani qo'llash maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi. Olingan natijalar ta'lim eksporti siyosatini strategik rejalashtirish va boshqarish uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim xizmatlari eksporti, SWOT-tahlil, omilli tahlil, IFAS/EFAS, xalqaro talabalar, ta'limning internatsional-lashuvi, strategik rejalashtirish.

Аннотация. Факторы, влияющие на развитие экспорта образовательных услуг в Узбекистане, комплексно оценены с использованием методов SWOT-анализа и факторного анализа. В исследовании применены экспертная оценка, метод взвешенных баллов (IFAS/EFAS), а также анализ главных компонент. Результаты позволили выявить десять ключевых факторов, объединённых в три крупные группы: институционально-качественные, рыночно-ресурсные и регулирующие факторы. Диаграмма стратегического положения SWOT подтверждает целесообразность применения агрессивной (SO) стратегии в развитии экспорта образовательных услуг страны. Полученные результаты могут служить научно-практической основой для стратегического планирования и совершенствования политики в сфере экспорта образования.

Ключевые слова: экспорт образовательных услуг, SWOT-анализ, факторный анализ, IFAS/EFAS, иностранные студенты, интернационализация образования, стратегическое планирование.

Abstract. The factors affecting the development of education services export in Uzbekistan were comprehensively assessed using SWOT analysis and factor analysis methods. The study employed expert assessment, the weighted-score method (IFAS/EFAS), and principal component analysis. The findings identified ten key factors influencing education services export and grouped them into three major components: institutional-quality, market-resource, and regulatory factors. The SWOT strategic position diagram confirms the suitability of an aggressive (SO) strategy for enhancing the country's education services export. The results provide a scientific and practical basis for strategic planning and policy development in the field of education export.

Keywords: education services export, SWOT analysis, factor analysis, IFAS/EFAS, international students, internationalization of education, strategic planning.

KIRISH

Globalashuv sharoitida oliy ta'lim xizmatlari xalqaro savdoning eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylandi. Jahon savdo tashkilotining xizmatlar savdosi bo'yicha umumiy bitimida (GATS) ta'lim xizmatlari eksporti to'rt ko'rinishda — chegaradan tashqari yetkazib berish, xorijda iste'mol qilish, tijorat ishtiroki va jismoniy shaxslarning harakatlanishi tarzida tasniflanadi [1]. Bugungi kunda dunyo bo'ylab oliy ta'lim olayotgan xalqaro talabalar soni olti milliondan oshgan bo'lib, mazkur yo'nalish qabul qiluvchi davlatlar uchun nafaqat moliyaviy daromad manbai, balki «yumshoq kuch» (soft power) hamda inson kapitalini jalb etish vositasiga ham aylangan [2].

Iqtisodiy nuqtai nazardan, ta'lim xizmatlari eksporti yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan «ko'rinmas eksport» turi hisoblanadi. Xorijiy talaba nafaqat o'qish to'lovini amalga oshiradi, balki turar joy, oziq-ovqat,



transport va boshqa xizmatlar uchun ham mablag' sarflaydi, bu esa multiplikativ iqtisodiy samara hosil qiladi. Yetakchi davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ta'lim eksporti milliy iqtisodiyot uchun barqaror valyuta tushumlari manbalaridan biriga aylanishi mumkin. Shu bilan birga, ushbu yo'nalish malakali inson kapitalini jalb etish, ilmiy-tadqiqot salohiyatini oshirish hamda davlatning xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlash imkonini beradi [9, 10]. Aynan shu sababli ta'lim eksporti ko'plab mamlakatlarda iqtisodiy diversifikatsiya va inson kapitaliga asoslangan o'sish strategiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda.

Ta'lim internatsionallashuvi muammolari xorijiy ilmiy adabiyotlarda keng o'rganilgan. J. Knight ta'lim internatsionallashuvini institutsional va milliy darajadagi kompleks jarayon sifatida ta'riflagan [1]. H. de Wit va P. Altbach internatsionallashuvning zamonaviy bosqichida raqamli texnologiyalar hamda mintaqaviy hamkorlik hal qiluvchi rol o'ynashini ta'kidlaydilar [2]. T. Mazzarol va G. Soutar xalqaro talabalarni jalb etishda «itaruvchi va tortuvchi» (push-pull) omillar modelini ishlab chiqib, qabul qiluvchi davlatning narx, sifat va xavfsizlik ko'rsatkichlari muhim ahamiyatga ega ekanligini asoslab berganlar [3]. SWOT-tahlilning metodologik asoslari H. Veyxrix tomonidan TOWS-matritsa shaklida rivojlantirilgan bo'lib, u ichki va tashqi omillarni o'zaro bog'lash orqali strategik variantlarni shakllantirish imkonini beradi [4]. Omilli tahlil (factor analysis) usullari esa J. Heyr va hammualliflar tomonidan ko'p o'lchovli ma'lumotlarni tahlil qilishning asosiy vositalaridan biri sifatida tizimlashtirilgan [5].

O'zbekistonda ta'lim xizmatlari eksporti so'nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Oliy ta'limni rivojlantirish konsepsiyasida xorijiy talabalar sonini bosqichma-bosqich oshirish, xalqaro filiallar tarmog'ini kengaytirish hamda milliy universitetlarning xalqaro reytinglardagi o'rnini yaxshilash vazifalari belgilangan. 2025–2026-o'quv yili holatiga ko'ra, mamlakat oliy ta'lim muassasalarida 24 797 nafar xorijiy fuqaro tahsil olmoqda. Shu bilan birga, ta'lim eksportiga ta'sir etuvchi omillarni tizimli, miqdoriy va strategik nuqtai nazardan baholashga qaratilgan kompleks tadqiqotlarni yanada rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Mazkur holat ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda ta'lim xizmatlari eksportini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni SWOT-tahlil va omilli tahlil usullari yordamida aniqlash, ularning ta'sir darajasini miqdoriy baholash hamda shu asosda strategik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'lim xizmatlari eksporti oliy ta'limning internatsionallashuvi bilan chambarchas bog'liq jarayon hisoblanadi. J. Knight ta'lim internatsionallashuvini xalqaro, madaniyatlararo va global jihatlarni ta'lim tizimiga integratsiyalash jarayoni sifatida izohlaydi [1]. P. Altbach va H. de Wit esa zamonaviy oliy ta'lim tizimida xalqaro talabalar harakati, akademik mobillik va transmilliy ta'lim xizmatlari eksportning asosiy yo'nalishlariga aylanganligini ta'kidlaydilar [2; 8]. Yang R. rivojlanayotgan mamlakatlarda oliy ta'limning xalqaro integratsiyasi milliy raqobatbardoshlikni oshirish hamda global bilimlar bozoriga kirishning muhim omili ekanligini qayd etadi [15].

Ta'lim xizmatlari eksportiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganishda T. Mazzarol va G. Soutarning "push-pull" modeli muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, xalqaro talabalarning ta'lim manzilini tanlashida ta'lim sifati, narx raqobatbardoshligi, xavfsizlik, geografik yaqinlik va davlatning imijiga oid omillar muhim ahamiyat kasb etadi [3]. N. Healey xorijiy filial universitetlari faoliyati xalqaro talabalarni jalb qilish va ta'lim eksportini kengaytirishda samarali vositalardan biri ekanligini asoslaydi [10]. V. Naidoo esa ta'lim xizmatlari eksportini iqtisodiy rivojlanish, inson kapitalini shakllantirish va innovatsion o'sishni ta'minlovchi strategik yo'nalish sifatida baholaydi [14].

O'zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlarida ta'lim xizmatlari eksportini rivojlantirish masalalari so'nggi yillarda faol tadqiq etilmoqda. G. Abdurahmonova va hammualliflar O'zbekistonda oliy ta'lim eksporti salohiyati mavjudligini, biroq xalqaro akkreditatsiya, ta'lim sifati va xorijiy talabalarni jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydilar [11]. N. Akhrorovanning tadqiqotlarida talabalar mobilligi, talabalar turizmi va mintaqaviy hamkorlik ta'lim xizmatlari eksportini rivojlantirishning muhim omillari sifatida ko'rsatib berilgan [4; 9; 13]. UNESCO va OECD ma'lumotlari xalqaro talabalar sonining barqaror o'sib borayotganligini tasdiqlab, ta'lim eksportining jahon xizmatlar bozori tarkibidagi strategik ahamiyatini yanada kuchaytirayotganini ko'rsatadi [6; 7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda bir necha uslubiy yondashuvlar birgalikda qo'llanildi. Birinchidan, ilmiy adabiyotlar va statistik manbalar (UNESCO, OECD, stat.edu.uz) tahlili asosida ta'lim xizmatlari eksportiga ta'sir etuvchi omillarning dastlabki ro'yxati shakllantirildi. Ikkinchidan, ekspert baholash usuli qo'llanilib, ta'lim sohasi va xalqaro hamkorlik

yo'nalishida faoliyat yurituvchi 15 nafar mutaxassis ishtirokida har bir omilning ahamiyat darajasi besh balli shkala asosida baholandi. Uchinchidan, SWOT-tahlil doirasida ichki omillar (IFAS) va tashqi omillar (EFAS) og'irlikli ball usuli yordamida miqdoriy baholandi. Bunda har bir omilga ahamiyat og'irligi (0–1) hamda reyting bali (1–4) berilib, og'irlikli ballar hisoblab chiqildi.

To'rtinchidan, omilli tahlil (asosiy komponentlar usuli) yordamida o'zaro bog'liq omillar yiriklashtirilgan komponentlarga guruhlandi va har bir omilning umumiy dispersiyadagi ulushi (ta'sir og'irligi) aniqlandi. Hisob-kitoblarni amalga oshirishda ekspert baholarining o'rtacha qiymatlari korrelyatsion matritsa shaklida tartiblanib, komponentlar Kayzer mezoni (xos qiymat > 1) asosida ajratildi. Tahlil natijalari jadval va grafiklar ko'rinishida vizuallashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijasida ta'lim xizmatlari eksportini rivojlantirishga ta'sir etuvchi o'nta asosiy omil aniqlandi va ularning kuchli hamda zaif tomonlar, imkoniyatlar va tahdidlar bo'yicha SWOT-tasnifi tuzildi (1-jadval).

1-jadval. Ta'lim xizmatlari eksportining SWOT-tahlil matritsasi¹

Kuchli tomonlar (S)	Zaif tomonlar (W)
<ul style="list-style-type: none"> – raqobatbardosh o'qish narxi; – davlatning kuchli institutsional qo'llab-quvvatlashi; – qulay geografik joylashuv (Markaziy Osiyo markazi); <ul style="list-style-type: none"> – mintaqa bilan madaniy, til va diniy yaqinlik; – oliy ta'lim muassasalari tarmog'ining tez kengayishi. 	<ul style="list-style-type: none"> – universitetlarning xalqaro reytinglardagi past o'rni; – ingliz tilidagi ta'lim dasturlarining cheklanganligi; <ul style="list-style-type: none"> – raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi; – xalqaro akkreditatsiya va diplomlarning tan olinishi bilan bog'liq masalalar; – yotoqxon va xizmatlar infratuzilmasining yetarli emasligi.
Imkoniyatlar (O)	Tahdidlar (T)
<ul style="list-style-type: none"> – Markaziy Osiyoda ta'lim markazi (hub) bo'lish salohiyati; – onlayn va transchegaraviy ta'lim eksportining o'sishi; – mintaqada ta'limga bo'lgan talabning ortib borishi; <ul style="list-style-type: none"> – xorijiy universitetlar filiallarini jalb etish; – xalqaro hamkorlik va grant dasturlarini kengaytirish imkoniyatlari. 	<ul style="list-style-type: none"> – mintaqaviy raqobat (Qozog'iston, Rossiya, Turkiya, Xitoy); <ul style="list-style-type: none"> – yuqori malakali kadrlarning chet elga ketishi; – geosiyosiy va mintaqaviy beqarorlik omillari; <ul style="list-style-type: none"> – milliy valyuta kursining o'zgaruvchanligi; – jahon ta'lim standartlarining tez yangilanib borishi.

SWOT-matritsadagi omillarning og'irlikli baholanishi IFAS (ichki omillarni baholash) va EFAS (tashqi omillarni baholash) usullari yordamida amalga oshirildi. Har bir omilga ahamiyat og'irligi (0–1) hamda reyting bali (1–4) berilib, ularning ko'paytmasi asosida og'irlikli ball aniqlandi (2-jadval).


2-jadval. Ichki va tashqi omillarning og'irlikli baholanishi (IFAS/EFAS)²

Omillar guruhi	Og'irlik	Reyting	Og'irlikli ball
Kuchli tomonlar (S)	0,30	4	1,20
Zaif tomonlar (W)	0,30	2	0,60
Ichki omillar jami (IFAS)	0,60	—	2,95
Imkoniyatlar (O)	0,25	4	1,00
Tahdidlar (T)	0,15	3	0,45
Tashqi omillar jami (EFAS)	0,40	—	3,10

Hisob-kitoblar shuni ko'rsatdiki, ichki omillarda kuchli tomonlarning umumiy og'irlikli bali (2,95) zaif tomonlarnikidan (2,40) yuqori, tashqi omillarda esa imkoniyatlar bali (3,10) tahdidlar balidan (2,55) ustunlik qiladi. Ushbu natijalar asosida qurilgan strategik holat diagrammasi (2-rasm) mamlakat ta'lim xizmatlari eksportining agressiv (SO) chorakda joylashganligini, ya'ni kuchli tomonlar va mavjud imkoniyatlardan faol foydalanishga asoslangan strategiya maqbul ekanligini ko'rsatadi.

1 Jadval muallif tomonidan ekspert baholash va statistik manbalar tahlili asosida tuzilgan (muallif ishlanmasi).

2 Jadval IFAS/EFAS og'irlikli ball usuli asosida muallif tomonidan tuzilgan (muallif ishlanmasi).



1-rasm. Ta'lim xizmatlari eksportini rivojlantirishning SWOT strategik holat diagrammasi³

Keyingi bosqichda omilli tahlil (asosiy komponentlar usuli) o'tkazildi. Ekspert baholari asosida o'nta omilning umumiy dispersiyadagi ulushi (ta'sir og'irligi) hisoblab chiqildi va ular uchta asosiy komponentga guruhlandi (3-jadval, 2-rasm).


3-jadval

Ta'lim eksporti omillarining omilli tahlil natijalari⁴

№	Omil	Ta'sir og'irligi, %	Komponent
1	Davlat siyosati va institutsional qo'llab-quvvatlash	18,4	1-komp.
2	Ta'lim sifati va xalqaro akkreditatsiya	15,7	1-komp.
3	Til muhiti (ingliz tili) dasturlari	13,2	1-komp.
4	Narx raqobatbardoshligi	11,8	2-komp.
5	Geografik joylashuv (Markaziy Osiyo markazi)	9,6	2-komp.
6	Universitet brendi va xalqaro reytingi	8,9	2-komp.
7	Raqamli infratuzilma va onlayn ta'lim	7,5	2-komp.
8	Madaniy-tarixiy va diniy yaqinlik	6,1	3-komp.
9	Viza va migratsiya siyosati	4,8	3-komp.
10	Diplomlarning xalqaro tan olinishi	4,0	3-komp.
	Jami	100,0	—

³ Diagramma IFAS/EFAS og'irlikli ball usuli natijalari asosida muallif tomonidan tuzilgan (muallif ishlanmasi).

⁴ Ta'sir og'irliklari ekspert baholarining asosiy komponentlar tahlili asosida muallif tomonidan hisoblab chiqilgan (muallif hisob-kitobi).



2-rasm. Omillarning omilli tahlil bo'yicha ta'sir og'irliklari⁵

Tahlil natijalari ta'lim xizmatlari eksportiga ta'sir etuvchi omillarning uchta yirik komponentga ajralishini ko'rsatdi. Birinchi komponent — institutsional-sifat omillari (davlat siyosati, ta'lim sifati va til muhiti) umumiy dispersiyaning 47,3 foizini izohlaydi va eng kuchli ta'sir guruhini tashkil etadi. Ikkinchi komponent — bozor-resurs omillari (narx, joylashuv, brend va raqamli infratuzilma) 37,8 foizni tashkil etadi. Uchinchi komponent — tartibga soluvchi omillar (madaniy yaqinlik, viza siyosati va diplomlarning tan olinishi) 14,9 foizni qamrab oladi. Eng yuqori individual ta'sir og'irligi davlat siyosati va institutsional qo'llab-quvvatlash (18,4 %), undan keyin esa ta'lim sifati va xalqaro akkreditatsiya (15,7 %) omillariga to'g'ri keladi.

Mintaqaviy taqqoslash natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning kuchli tomonlari — narx raqobatbardoshligi, geografik joylashuvi va madaniy yaqinligi — Markaziy Osiyo bozorida raqobatbardosh ustunlikni shakllantiradi. Shu bilan birga, ingliz tilidagi ta'lim dasturlari va xalqaro akkreditatsiya yo'nalishlarida Qozog'iston hamda Rossiya bilan raqobat sharoitida rivojlanish imkoniyatlari mavjud. Ayni paytda raqamli infratuzilma va onlayn ta'lim omili (7,5 %) hozircha nisbatan past ulushga ega bo'lsa-da, COVID-19 pandemiyasidan keyingi davrda uning ahamiyati jadal ortib bormoqda va kelgusida ta'lim xizmatlari eksportini kengaytirishning muhim resurslaridan biriga aylanishi mumkin. Mazkur omillarning o'zaro bog'liqligi shuni ko'rsatadiki, ta'lim xizmatlari eksportini rivojlantirishda tizimli va kompleks yondashuv yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Olingan natijalar xalqaro ilmiy adabiyotlarda keltirilgan xulosalar bilan uyg'unlashadi. Mazzarol va Soutarning push-pull modelida ta'kidlangan narx hamda sifat omillari [3] mazkur tadqiqot natijalarida ham yetakchi o'rinlarni egalladi. Ayni paytda, O'zbekiston sharoitida davlat siyosatining muhim rol o'ynashi mintaqaning o'ziga xos jihatlardan biri sifatida namoyon bo'ldi. Rivojlangan ta'lim bozorlarida bozor mexanizmlari yetakchi ahamiyat kasb etsa, O'zbekiston sharoitida institutsional qo'llab-quvvatlash ta'lim xizmatlari eksportini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Bu holat Knight va de Witning rivojlanayotgan mamlakatlarda internatsionallashuv "yuqoridan pastga" yo'naltirilgan jarayon ekanligi haqidagi qarashlari bilan hamohangdir [1, 2].

SWOT strategik holat diagrammasining agressiv (SO) chorakda joylashishi mamlakat uchun mavjud kuchli tomonlar — narx raqobatbardoshligi, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va qulay geografik joylashuv — hisobiga tashqi imkoniyatlardan, jumladan, mintaqaviy ta'lim markaziga aylanish va onlayn ta'lim eksportini kengaytirish imkoniyatlaridan faol foydalanish strategiyasi maqbul ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, zaif tomonlar bo'yicha ko'rsatkichlarning mavjudligi agressiv strategiyani ichki institutsional islohotlar bilan uyg'unlashtirish zarurligini anglatadi.

Tadqiqotning cheklavlari omilli tahlilning ekspert baholariga asoslanganligi hamda namuna hajmining nisbatan kichikligi (15 nafar ekspert) bilan izohlanadi. Shuningdek, ta'sir og'irliklari real bozor ko'rsatkichlari, jumladan, ta'lim xizmatlari eksporti hajmi va xalqaro talabalar oqimi dinamikasi bilan qo'shimcha empirik baholash imkoniyatlarini saqlab qoladi. Kelgusidagi tadqiqotlarda ekspertlar namunasi doirasini kengaytirish, regressiya modellashtirish usullaridan foydalanish hamda alohida universitetlar misolida amaliy baholashlarni

5 Grafik 2-jadval ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan (muallif ishlanmasi).



amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Nazariy jihatdan tadqiqot natijalari SWOT-tahlil va omilli tahlil usullarini birlashtirgan integratsiyalashgan yondashuvning samaradorligini tasdiqlaydi. SWOT-tahlil omillarning sifat jihatidan tasniflanishini ta'minlash, omilli tahlil ularning miqdoriy og'irligini aniqlash imkonini beradi. Bunday kombinatsiyalashgan metodologiya ta'lim xizmatlari eksporti kabi ko'p omilli va murakkab jarayonlarni tahlil qilishda an'anaviy yondashuvlarga nisbatan aniqroq strategik xulosalar chiqarishga xizmat qiladi. Amaliy jihatdan esa aniqlangan ta'sir og'irliklari resurslarni taqsimlashda ustuvor yo'nalishlarni belgilash uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, eng yuqori og'irlikka ega bo'lgan institutsional-sifat omillariga investitsiyalarni yo'naltirish yuqori samaradorlikka erishish imkonini yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekistonda ta'lim xizmatlari eksportini rivojlantirishga ta'sir etuvchi o'nta asosiy omil aniqlandi va ular institutsional-sifat (47,3 %), bozor-resurs (37,8 %) hamda tartibga soluvchi (14,9 %) komponentlarga guruhlandi. SWOT-tahlil natijalari mamlakat ta'lim xizmatlari eksportining agressiv (SO) strategik chorakda joylashganligini ko'rsatdi. Eng yuqori ta'sirga ega omillar sifatida davlat siyosati va institutsional qo'llab-quvvatlash (18,4 %), shuningdek, ta'lim sifati va xalqaro akkreditatsiya (15,7 %) ajralib turdi.

Shu munosabat bilan ta'lim xizmatlari eksporti siyosatini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi: birinchidan, ingliz tilidagi ta'lim dasturlari ulushini bosqichma-bosqich kengaytirish; ikkinchidan, milliy universitetlarni xalqaro akkreditatsiya va reyting tizimlariga integratsiyalashuvini jadallashtirish; uchinchidan, raqamli ta'lim infratuzilmasini rivojlantirish hamda transchegaraviy va onlayn ta'lim eksportini kengaytirish; to'rtinchidan, Markaziy Osiyo ta'lim markazi konsepsiyasini ishlab chiqish va mintaqaviy talabalar oqimini faol jalb etish; beshinchidan, xorijiy talabalar uchun viza, yotoqxon va xizmatlar infratuzilmasini yanada takomillashtirish.

Umuman olganda, ta'lim xizmatlari eksporti O'zbekiston uchun nafaqat iqtisodiy daromad manbai, balki inson kapitalini rivojlantirish, xalqaro akademik hamkorlikni kengaytirish hamda mamlakatning xalqaro nufuzini mustahkamlashga xizmat qiluvchi strategik yo'nalish sifatida e'tirof etilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Knight, J. Internationalization Remodeled: Definition, Approaches and Rationales // *Journal of Studies in International Education*. — 2004. — Vol. 8, No. 1. — P. 5–31.
2. de Wit, H., Altbach, P. G. Internationalization in Higher Education: Global Trends and Recommendations for Its Future // *Policy Reviews in Higher Education*. — 2021. — Vol. 5, No. 1. — P. 28–46.
3. Mazzarol, T., Soutar, G. N. "Push-Pull" Factors Influencing International Student Destination Choice // *International Journal of Educational Management*. — 2002. — Vol. 16, No. 2. — P. 82–90.
4. Akhrorova, N. Inbound and Outbound Student Mobility as a Driver of Student Tourism in Central Asia: A Comparative Analysis (2018–2024) // *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science*. — 2026. — Vol. 1607. — No. 1. — P. 012010.
5. Hair, J. F., Black, W. C., Babin, B. J., Anderson, R. E. *Multivariate Data Analysis*. 8th ed. — Cengage Learning, 2019. — 832 p.
6. OECD. *Education at a Glance 2024: OECD Indicators*. — Paris: OECD Publishing, 2024. — 480 p.
7. UNESCO Institute for Statistics. *Global Flow of Tertiary-Level Students*. — Montreal: UNESCO Institute for Statistics, 2024.
8. Altbach, P. G., Knight, J. The Internationalization of Higher Education: Motivations and Realities // *Journal of Studies in International Education*. — 2007. — Vol. 11. — No. 3–4. — P. 290–305.
9. Akhrorova, N. U. Student Tourism Development in Central Asia: Comparative Assessment of Organizational Frameworks // *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*. — 2025. — Vol. 6. — No. 3. — P. 1182–1199.
10. Healey, N. M. The Challenges of Leading an English Higher Education Branch Campus Abroad // *Journal of Higher Education Policy and Management*. — 2018. — Vol. 40. — No. 1. — P. 33–52.
11. Abdurahmonova, G. va boshq. O'zbekistonda oliy ta'lim eksporti salohiyati va uni rivojlantirish yo'nalishlari // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*. — 2023. — № 4. — B. 112–124.
12. WTO. *General Agreement on Trade in Services (GATS): Education Services*. — Geneva: World Trade Organization, 2010.
13. Akhrorova, N. Strategic Framework for the Advancement of Student Tourism Development // *Green Economy and Development*. — 2024. — Vol. 2. — No. 9. — Article 665000.
14. Naidoo, V. Higher Education: A Powerhouse for Development in a Neo-Liberal Age // *Studies in Higher Education*. — 2011. — Vol. 36. — No. 4. — P. 449–463.
15. Yang, R. Internationalization of Higher Education in Developing Countries // *International Higher Education*. — 2020. — No. 103. — P. 3–5.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100